


**Farg'ona viloyatining
TASHQI SAVDO AYLANMASI**

(2018 yil yanvar-dekabr)

2018 yil yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, viloyatimizda tashqi savdo aylanmasi 1374,4 mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 44,8 %ga o'sdi. Shu jumladan, eksport hajmi 510,9 mln. AQSh dollarga (1,8 %ga kamaygan) va import hajmi 863,4 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati 2,0 marta ko'p) yetdi. Tashqi savdo saldosi minus 352,5 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.

**Farg'ona viloyati tashqi savdo aylanmasi
(mln. AQSh dollari)**




So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi. Jumladan, xom-ashyo eksportidan, qo'shilgan

qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo'naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

Misol tariqasida, paxta tolasining umumiy eksportdagi ulushi bo'yicha o'zgarish tendentsiyalarini ko'rishimiz mumkin. 2015 yil yanvar-dekabr oylarida paxta tolasini eksporti umumiy eksportning 1,1% ini tashkil etgan bo'lib, jami eksport hajmi 3251,9 ming tonnaga yetgan bo'lsa, 2016 yilning yanvar-dekabr oylarida jami 5415,1 ming tonna paxta tolasini eksport qilingan. 2017 yil yanvar-dekabr oylari natijalariga ko'ra, esa paxta tolasining umumiy eksportdagi ulushi 2,3 %gacha ko'payib, eksport hajmi 11731,1 ming tonnani tashkil qildi.

Mazkur o'zgarish tendentsiyasini esa paxta xom-ashyosini yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksportga yo'naltirilishi bilan izohlashimiz mumkin bo'ladi.


Eksportda paxta tolasini ulushining dinamikasi, %
(yanvar-dekabr)



Joriy yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga nazar tashlasak, paxta tolasining umumiy eksportdagi ulushi avvalgi yillarning shu davriga nisbatan sezilarli darajada kamayganini ko'rishimiz mumkin. Ushbu davrda jami 534,7 ming tonna paxta tolasini eksport qilingan.

Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2018 yilning dekabr oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar, noyabr oyiga nisbatan 105,6 mln. AQSh dollarga ko'proq eksport qilindi va 510,9 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Tovar va xizmatlar importi hajmi esa 863,4 mln. AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lib, bu esa noyabr oyiga nisbatan 6,4 mln. AQSh dollariga ko'proqdir.

2018 yilda tovar va xizmatlarning oylik eksport-import ko'rsatkichlari dinamikasi
(mln. AQSh dollari)



2018 yil yanvar-dekabr oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi joriy yilning yanvar oyidan buyon deyarli o'zgarishsiz qolmoqda.

Viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar

(mln. AQSh dollari)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi	
				ulushi, %	o'zgarish sur'ati, %
Rossiya	346,9	126,1	220,7	25,2	1,6 m
Xitoy	328,2	112,8	215,4	23,9	1,8 m
Qozog'iston	286,3	81,2	205,0	20,8	1,5 m

(mln. AQSh dollari)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi	
				ulushi, %	o'zgarish sur'ati, %
Qirg'iziston	85,9	49,6	36,3	6,2	1,7 m
Turkiya	54,7	31,6	23,0	4,0	80,5
Germaniya	30,7	1,9	28,8	2,2	3,0 m
Koreya Respublikasi	30,4	5,2	25,2	2,2	75,9
Polsha	21,5	19,5	2,0	1,6	108,0
Tojikiston	21,2	9,9	11,3	1,5	1,5 m
Bangladesh	18,3	18,3	0,0	1,3	97,3
Xindiston	12,7	0,1	12,6	0,9	5,1 m
Turkmanistan	9,9	0,5	9,4	0,7	1,4 m
Latviya	9,8	1,2	8,6	0,7	1,2 m
Ukraina	9,3	4,5	4,7	0,7	83,0
Shveysariya	7,9	0,0	7,9	0,6	3,8 m
Eron	7,0	4,0	3,0	0,5	46,3
Litva	7,0	1,9	5,0	0,5	2,0 m
Italiya	6,5	0,5	6,0	0,5	60,5
Yaponiya	6,5	0,4	6,0	0,5	4,3m
Chexiya	6,1	2,0	4,1	0,4	2,0 m

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2018 yil yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 56,0 %ni tashkil yetdi hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,5 martaga oshdi. Boshqa xorijiy davlatlarning respublika tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2017 yilning yanvar-dekabr oylarida 1,3 martani tashkil qilgan bo'lsa, joriy yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 44,0 %ga yetdi.

**Farg'ona viloyatining
ayrim hamkor davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi**
(mln. AQSh dollar)

Davlat nomi	2015 yil yanvar-dekabr	2016 yil yanvar-dekabr	2017 yil yanvar-dekabr	2018 yil yanvar-dekabr
Rossiya	295,1	231,1	220,0	346,9
eksport	60,5	89,9	114,8	126,1
Import	234,6	141,1	105,3	220,7
Saldo	-174,0	-51,2	-9,5	-94,5
Xitoy	229,3	144,7	184,8	328,2
eksport	68,6	59,3	78,9	112,8
import	160,7	85,3	105,9	215,4
saldo	-92,1	-26,0	-27,0	-102,5
Qozog'iston	48,5	145,9	185,6	286,3
eksport	37,4	35,2	78,3	81,2
import	11,1	110,7	107,3	205,0
saldo	-26,2	-75,5	-29,0	-12,3
Qirg'iziston	24,2	21,3	48,5	286,3
eksport	20,2	17,3	40,3	81,2
import	4,0	4,0	8,1	205,0
saldo	-16,2	-13,3	-32,2	-13,3
Turkiya	27,3	30,2	67,9	54,7
eksport	16,3	14,8	37,7	31,6
import	11,0	15,4	30,2	23,0
saldo	-5,3	-0,6	-7,6	-8,6
Germaniya	12,6	20,2	10,6	30,7
eksport	2,0	4,2	1,7	1,9
import	10,6	16,0	8,9	28,8
saldo	-8,6	-11,9	-7,3	-26,8
Koreya	116,2	45,5	40,0	30,4

(mln. AQSh dollar)

Davlat nomi	2015 yil yanvar-dekabr	2016 yil yanvar-dekabr	2017 yil yanvar-dekabr	2018 yil yanvar-dekabr
eksport	11,6	32,1	27,4	5,2
import	104,6	13,3	12,6	25,2
saldo	-92,9	-18,8	-14,8	-19,9
Polsha	15,9	16,4	19,9	21,5
eksport	15,2	16,1	19,1	19,5
import	0,7	0,3	0,8	2,0
saldo	14,6	-15,8	-18,3	-17,5
Tojikiston	4,2	26,6	14,3	21,2
eksport	1,3	23,8	9,3	9,9
import	2,9	2,8	5,0	11,3
saldo	-1,7	-21,0	-4,4	-1,3
Bangladesh	12,8	12,2	18,8	18,3
eksport	12,8	12,2	18,8	18,3
import	0	0	0	0
saldo	-12,8	-12,2	-18,8	-18,3
Xindiston	10,5	7,9	2,5	12,7
eksport	4,0	2,9	0,9	0,1
import	6,5	5,0	1,6	12,6
saldo	-2,5	-2,1	-0,7	-12,5
Turkmaniston	7,1	3,8	7,2	9,9
eksport	1,2	0,7	2,8	0,5
import	5,9	3,1	4,4	9,4
saldo	-4,7	-2,4	-1,7	-8,8
Latviya	6,0	18,0	8,1	9,8
eksport	4,2	5,7	3,6	1,2
import	1,8	12,3	4,5	8,6
saldo	-2,4	-6,6	-0,9	-7,4

(mln. AQSh dollar)

Davlat nomi	2015 yil yanvar-dekabr	2016 yil yanvar-dekabr	2017 yil yanvar-dekabr	2018 yil yanvar-dekabr
Ukraina	19,5	8,7	11,2	9,3
eksport	12,5	4,2	8,3	4,5
import	7,0	4,5	2,9	4,7
saldo	-5,4	-0,3	-5,4	-0,2
Shvetsariya	7,1	22,0	2,1	7,9
eksport	00	0	00	00
import	7,1	22,0	2,1	7,9
saldo	-7,1	-22,0	-2,1	-7,9
Eron	3,7	6,2	15,1	7,0
eksport	3,1	5,4	13,5	4,0
import	0,6	0,8	1,5	3,0
saldo	-2,5	-4,7	-12,0	-0,9
Litva	12,4	4,2	3,3	7,0
eksport	0,6	1,2	1,5	1,9
import	11,8	3,0	1,9	5,0
saldo	-11,2	-1,9	-0,4	-3,1
Italiya	10,2	5,8	10,8	6,5
eksport	4,4	0,7	0,8	0,5
import	5,8	5,1	10,0	6,0
saldo	-1,4	-4,4	-9,2	-5,5
Yaponiya	86,4	3,3	1,5	6,5
eksport	0,5	0,6	0,2	0,4
import	85,9	2,7	1,3	6,0
saldo	-85,4	-2,1	-1,1	-5,6
Chexiya	4,6	16,9	3,0	6,1
eksport	2,1	2,0	1,7	2,0
import	2,5	14,9	1,4	4,1

(mln. AQSh dollar)

Davlat nomi	2015 yil yanvar-dekabr	2016 yil yanvar-dekabr	2017 yil yanvar-dekabr	2018 yil yanvar-dekabr
saldo	-0,5	-12,9	-0,3	-2,1


EKSPORT

2018 yil yanvar-dekabr oylarida eksport hajmi 510,9 mln. AQSh dollarga (1,8 % ga kamaygan) teng bo'ldi. Eksport tarkibida tovarlar 98,2 % ulushga ega, bular asosan energiya manbaalari va neft mahsulotlari (5,4 %), oziq-ovqat mahsulotlari (32,9 %), shuningdek, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (0,53 %) guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi

(mln. AQSh dollari)

2017 Yil
yanvar- dekabr



2018 Yil
yanvar- dekabr



- paxta tolasi
- oziq-ovqat mahsulotlari
- kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar
- Energiya manbaalari va neft mahsulotlari
- qora va rangli metallar
- Xizmatlar
- Boshqalar


- Paxta tolasi
- Oziq-ovqat mahsulotlari
- Kimyo mahsulotlari va buyumlari
- Energiya manbaalari va neft mahsulotlari
- Qora va rangli metallar
- Xizmatlar
- Boshqalar

Eksport tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
Eksport	510,9	99,4	100	276,8	107,5	100	234,1	91,3	100
Paxta tolasi	0,1	9,0	0,2	00	00	00	1,1	9,0	0,4
Oziq-ovqat mahsulotlari	1,2	120,9	33,0	162,1	131,8	58,6	6,3	38,7	2,7
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	0,1	5,9	0,5	2,4	8,0	0,9	0,3	1,7	0,1
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	1,6	156,0	5,4	12,5	2,0 m	4,5	14,9	1,3 m	6,4
Qora va rangli metallar	0,5	53,1	0,1	0,04	53,1	0,1	0,01	0,01	0,01
Mashina va asbob - uskunalar	1,6	158,4	0,1	0,6	1,5 m	0,2	0,03	5,6 m	0,01
Xizmatlar	1,5	145,4	1,8	7,3	1,2 m	2,6	2,1	4,5 m	0,9
Boshqalar	1,0	102,8	59,0	91,8	100,5	33,2	2,0 m	103,8	89,5

Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-dekabr oylari davomida eng yuqori o'sish sur'atlari may, iyun, sentyayur, oylarida kuzatilgan.

Tovar va xizmatlar eksportining o'sish sur'atlari dinamikasi
(o'tgan oyga nisbatan,%)




Shuningdek, tovar va xizmatlar eksporti o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2018 yilning dekabr oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar noyabr oyiga nisbatan 99,4 %ga oshgan.

Xizmatlar eksporti hajmi 9383,3 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 1,8 %ini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,5 martaga ko'payganligi kuzatildi.


Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari hamda moliyaviy xizmatlar hissasiga to'g'ri keladi.


2018 yilda tovarlar va xizmatlar eksporti dinamikasi
(oylar kesimida, mln. AQSh dollari)



Viloyat eksportida asosiy hamkor davlatlarning ulushi
(yanvar-dekabr)

2017 yil





Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 49,1 % ini tashkil qiladi. Xitoy Xalq Respublikasi va Rossiya Federatsiyasiga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan energiya manbaalari va neft mahsulotlari, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

**Farg'ona viloyatining
asosiy hamkor davlatlarga amalga oshirgan eksport hajmi**

Davlat nomi	Mln. AQSh doll.		Ulushi, %		O'rni	
	2017 y.	2018 y.	2017 y.	2018 y.	2017 y.	2018 y.
Rossiya	114,8	126,1	22,3	24,7	1	1
Xitoy	78,9	112,8	15,4	22,1	2	2
Kozog'iston	78,3	81,2	15,2	15,9	3	3
Kirg'iziston	40,3	49,6	7,8	9,7	4	4
Turkiya	37,7	31,6	7,3	6,2	5	5
Germaniya	1,7	1,9	0,3	0,4	22	22
Koreya Respublikasi	27,4	5,2	5,3	1,0	6	10
Polsha	19,1	19,5	3,7	3,8	7	6

Tadjikistan	9,3	9,9	1,8	1,9	11	8
Bangladesh	18,7	18,3	3,6	3,6	8	7
Xindiston	0,9	0,1	0,2	0,1	33	44
Turkmenistan	2,8	0,5	0,5	0,1	17	35
Latviya	3,6	1,2	0,7	0,2	15	27
Ukraina	8,3	4,5	1,6	0,9	12	11
Eron	13,5	4,0	2,6	0,8	10	14
Litva	1,5	1,9	0,3	0,4	26	21
Italiya	0,8	0,5	0,2	0,1	35	36
Yaponiya	0,2	0,4	0,1	0,1	46	37
Chexiya	1,7	2,0	0,3	0,4	24	20

**Farg'ona viloyatining ayrim davlatlar
bilan eksport tarkibi
(yanvar-dekabr)**

ming. AQSh doll.)

	Rossiya Respublikasi		Qozoqiston Respublikasi	
	2017 y.	2018 y.	2017 y.	2018 y.
Jami eksport	114762,2	126143,9	78315,1	81219,2
Paxta tolasi	-	-	-	-
Oziq-ovqat mahsulotlari	39185,6	46344,8	66354,1	74597,0
Kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan buyumlar	3174,4	34,9	1323,0	202,2
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	0,0	0,1	4095,5	3910,1
Qora va rangli metallar	0,0	4,5	11,4	7,0
Mashina va uskunalar	369,6	474,3	1,9	10,2
Xizmatlar	5843,8	7175,4	68,4	21,9
Boshqalar	66188,8	72110,0	6460,8	2470,8

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida jami 172,1 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 166,1 mln. AQSh dollariga eksport qilindi (o'sish sur'ati 21,6 %). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 43,1 ming tonnadan ko'proq sabzavotlar 17,5 mln. AQSh dollariga yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,1 ming tonnaga ko'p miqdorda eksport qilingan.







Shuningdek, 91,8 ming tonna meva va rezavorlar 119,5 mln. AQSh dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,1 ming tonnaga ko'pdir.

Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi





Shuni aytib o'tish joizki, mamlakatimizda eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib bormoqda. Jumladan, 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 137,0 mln.AQSh dollariga yetdi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,2 martaga ko'paygan.).

Viloyatimizda yetishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining asosiy bozorlari eksport geografiyasi

Davlat nomi	2017 yil yanvar-dekabr			2018 yil yanvar-dekabr		
	Ming. tonna	Ming. AQSh,doll	Ulushi, %	Ming. tonna	Ming. AQSh,doll	Ulushi, %
 Qozog'iston	79,7	65,5	48,0	59,0	73,8	44,4
 Rossiya	57,8	38,9	28,5	62,0	45,7	27,5
 Qirg'iziston	22,9	14,9	10,9	38,7	38,4	23,1
 Avg'oniston	5,2	4,7	3,4	3,4	2,7	1,7
 Turkiya	1,6	2,2	1,6	0,7	0,6	0,4
 Ukraina	0,9	0,6	0,4	2,9	1,5	0,9

IMPORT

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida import hajmi 863,4 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati 2,0 martaga) teng bo'ldi. Import tarkibida eng katta ulush energiya manbalari va neft mahsulotlari (32,7), mashina va asbob uskunalar (24,9%), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (8,9 %) hamda oziq-ovqat mahsulotlari (7,6 %) guruhlari hisobiga to'g'ri keldi.


Tovar va xizmatlar importi tarkibi
(mln.AQSh dollari)

Import tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
Import	863,5	2,0 m	100	492,2	2,1 m	100	371,2	1,8 m	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	65,3	1,6 m	7,6	51,1	1,6 m	10,4	14,2	1,7 m	3,8

Kimyo mahsulotlari va buyumlari	282,6	1,5 m	8,9	20,9	2,4 m	4,2	56,2	1,3 m	15,1
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	213,9	2,2 m	32,7	282,1	2,2 m	57,3	0,4	1,8 m	0,1
Qora va rangli metallar	131,5	3,3 m	10,0	31,4	3,0 m	6,4	55,2	4,0 m	14,9
Mashina va asbob-uskunalar	77,1	2,0 m	24,8	9,4	106,8	1,9	204,5	2,0 m	55,1
Xizmatlar	86,6	104,6	0,8	0,2	68,1	0,1	6,3	106,2	1,7
Boshqalar	213,9	1,7 p	15,2	97,1	2,0 p	19,7	34,4	1,1 p	9,3

Import qilingan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-dekabr oylari davomida eng yuqori o'sish sur'atlari, iyun, iyul, dekabr oylarida kuzatilgan.

Tovarlar va xizmatlar importining o'sish sur'atlari dinamikasi
(o'tgan oyga nisbatan, %)



Shuningdek, tovar va xizmatlar importi o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2018 yilning dekabr oyida import qilingan tovar va xizmatlar noyabr oyiga nisbatan 0,5 %ga kamaygan.

**Farg'ona viloyatiga
asosiy hamkor davlatlardan amalga oshirilgan import hajmi**


Davlat nomi	Mln. AQSh dollari.		Ulushi, %		O'rni	
	2017 y.	2018 y.	2017 y.	2018 y.	2017 y.	2018 y.
Rossiya	105,3	220,7	24,2	25,6	3	1
Kitay	105,9	215,4	24,3	24,9	2	2
Kazaxstan	107,3	205,0	24,6	23,7	1	3
Kyrgyzstan	8,1	36,3	1,9	4,2	8	4
Turtsiya	30,2	23,0	6,9	2,7	4	5
Germaniya	8,9	28,8	2,0	3,3	7	22
Koreya	12,6	25,2	2,9	2,9	5	10
Polsha	0,8	2,0	0,2	0,2	25	6
Tadjikistan	5,0	11,3	1,1	1,3	10	8
Bangladesh	0,1	0,0	0,0	0,0	42	7
Indiya	1,6	12,6	0,4	1,5	18	44
Turkmenistan	4,4	9,4	1,0	1,1	12	35
Latviya	4,5	8,6	1,0	1,0	11	27
Ukraina	2,9	4,7	0,7	0,5	13	11
Shveysariya	2,1	7,9	0,5	0,9	16	72
Eron	1,5	3,0	0,4	0,4	19	14
Litva	1,9	5,0	0,4	0,6	17	21
Italiya	10,0	6,0	2,3	0,7	6	36
Yaponiya	1,3	6,0	0,3	0,7	23	37
Chexiya	1,4	4,1	0,3	0,5	20	20

Xizmatlar importi tarkibi, (%)

2018 yil yanvar-dekabr

Xizmatlar importi hajmi 6478,3 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 0,8 %ini tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 104,6 %ga o'sdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi turizm xizmatlari, transport xizmatlari, qurilish xizmatlari va telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlaridan iborat bo'ldi.


2018 yilda tovarlar va xizmatlar importi dinamikasi (oylar kesimida, mln. AQSh dollari)




Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2018 yilning o'tgan davri mobaynida viloyatga import qilinayotgan tovar va xizmatlar dekabr oyida, noyabr oyiga nisbatan 89,1 mln. AQSh dollarga ko'p import qilindi va 863,4 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat importida asosiy hamkor davlatlarning ulushi
(yanvar-dekabr)

2017 yil



2018 yil



2018 yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatimizga 76 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 5 ta eng yirik bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, Qozog'iston va Turkiya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 689,3 mln. AQSh dollariga teng.

Bu esa umumiy import hajmining 79,8 %ini tashkil qiladi